

Jamiyat va boshqaruv

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI



Toshkent – 2026



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/1(111)

“THINK TANK” YOKI “AQL MARKAZLARI”: DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI

Sanjar SAIDOV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“Siyosiy fanlar” kafedrası mudiri, siyosiy fanlar
doktori (DSc)



Annotatsiya: siyosiy jarayonlarning shiddat bilan o'zgarib borishi, axborot hajmi va oqimining ortishi, geosiyosiy jihatdan yangi xavf va tahdidlarning paydo bo'lishi muayyan siyosiy qarorlar qabul qilishni murakkablashtirmoqda. Ushbu holatlarda davlat boshqaruvida ixtisoslashgan va mustaqil axborot-tahlil institutlari sifatida faoliyat yurituvchi “aql markazlari” bilan yaqindan hamkorlik qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu ilmiy maqolada aql markazlarining faoliyati, turlari va ishlash tamoyillari tadqiqotga tortilib, O'zbekiston sharoitida aql markazlari va tahliliy uyushmalarni rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *aql markazlari, siyosiy qarorlar qabul qilish, ilmiy tahlil, davlat boshqaruvi, jahon siyosati, demokratik islohotlar.*

**“Think tanks” или «мозговые центры»:
роль в государственном и общественном
управлении**

Санжар Саидов,

Узбекский государственный университет
мировых языков Заведующий кафедрой
«Политических наук», доктор политических
наук (DSc)

Аннотация: быстрые изменения в политических процессах, увеличение объема и потока информации, а также появление новых геополитических рисков и угроз затрудняют принятие определенных политических решений. В этих условиях вопрос тесного сотрудничества в государственном управлении с «мозговыми центрами», функционирующими как специализированные и независимые информационно-аналитические институты, приобретает неотложное значение. В данной научной статье рассматриваются деятельность, виды и принципы работы аналитических центров. Особое внимание уделяется вопросу развития мозговых центров и аналитических объединений в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: *мозговые центры, принятие политических решений, научный анализ, государственное управление, мировая политика, демократические реформы.*

“Think tanks” or “analytical centers”: role in state and public administration

Sanjar Saidov,

Uzbekistan State World Languages University,
Head of the Department of Political Science,
Doctor of Political Science (DSc)

Abstract: rapid changes in political processes, the increase in the volume and flow of information, and the emergence of new geopolitical risks and threats make it difficult to make certain political decisions. In these conditions, the issue of close cooperation in public administration with “think tanks” functioning as specialized and independent information and analytical institutions is acquiring urgent importance. This research article examines the activities, types, and operating principles of think tanks. Particular attention is paid to the development of think tanks and analytical associations in Uzbekistan.

Keywords: *Think Tanks, political decision-making, scientific analysis, public administration, world politics, democratic reforms.*

Har bir davlatning istiqbolda rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan siyosiy qarorlar qabul qilishda siyosatchilar va davlat xizmatchilari turli variantda hamda o'z vaqtida “Maqbul qarorni qanday boshqarish kerak?” degan savolga duch kelishadi. Olimlarning

ayrim taklif va bashoratlari haqiqatdan yiroq bo'lishi mumkin. Nazariy ishlanmalarni “kundalik harakat” tiliga ko'chirishga sarflangan vaqt siyosiy qarorlar qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Aytishimiz mumkinki, ekspert va ilmiy-akademik bilimlar, mohiyatan, bir xil bo'lsa-da, baribir o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu borada ekspert hamjamiyatlarining vazifasi aniq – eng to'g'ri savollarni shakllantirish va keyinchalik ularga ilmiy asoslangan javoblar topishdan iborat.

Shu bois, zamonaviy dunyoda ilmiy va tahliliy-ekspert bilimlarning eng yaxshi tashuvchilarini bir “soyabon” ostida birlashtiruvchi “Think Tank” (“Aql markazlari”) deya nomlanuvchi uyushmalarning ahamiyati ortib bormoqda.

Fanda “aql markazi” (“Think Tank”, “aql fabrikasi”) tushunchasining umumiy qabul qilingan talqini mavjud emas. Jumladan, amerikalik siyosatshunos P.Dikson, asosan, siyosiy qarorlar va boshqaruv yo'nalishlarini ishlab chiqish masalalarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash nuqtayi nazaridan, korporativ va davlat shartnomalari bo'yicha maslahatlar beruvchi ommaviy institutlarni aql fabrikalari deb atagan [1; B: 8].

A.Rich siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan qoidalar va tajribalarni ishlab chiquvchi, ta'sir qilish vositasi sifatida ishlaydigan bir qator mustaqil notijorat siyosiy tashkilotlarni aql fabrikalari deb tasniflaydi [2]. Ye.Lindist, o'z navbatida, aql fabrikalarini ijtimoiy muammolarni hal qilish va kelajakka yo'naltirish uchun texnologiyalarni ishlab chiqishni maqsad qilgan, fanlararo fikrlash va tajribaning tanqidiy massasi deb ataydi [3].

D.Abelsonning fikricha, aql markazlari

milliy siyosat va jamoatchilik fikriga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan partiyasiz, notijorat, mafkuraviy bo'lmagan muassasalar hisoblanadi [1; B: 41]. Boshqa bir siyosatshunos olim – Y.Dror aql fabrikalarini: "Hokimiyat va bilim o'rtasidagi asosiy ko'prik sifatida jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishning o'ziga xos siyosiy amaliyotlarini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun to'liq fanlararo ilmiy fikrdan yuqori sifatli foydalanish orollari"ga qiyoslaydi [5].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Think Tank o'z faoliyatini siyosatga asoslangan tadqiqotlarga yo'naltiruvchi muassasalardir. Ish jarayonida ular dolzarb siyosiy masalalar bo'yicha o'z muayyan qarashlarini shakllantirib, siyosiy qarorlar qabul qilishga hissa qo'shadilar. Aql markazlari hukumat va ilmiy hamjamiyat o'rtasida muloqot o'rnatadi, shuningdek, intellektual kuchni davlat hokimiyati bilan birlashtirish g'oyasini o'zida mujassam etadi.

Aql fabrikalari jamiyatni isloh qilishning instrumental va texnologik faoliyatida ishtirok etishi hamda belgilangan muammolarni hal qilish uchun yuqori malakali mutaxassislardan foydalanishga imkon beruvchi "ijtimoiy injeneriya" tarkibidagi tugun nuqtalari hisoblanadi [4]. Ularning faoliyati demokratik jamiyatda ratsional tamoyillarni mustahkamlashga qaratilib, bu borada qonunchilikni o'rganish va muayyan ijtimoiy-siyosiy qarorning ehtimoliy oqibatlarini modellashtirishga ekspert va olimlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Tahliliy markazlar faoliyatini tasniflashda eng to'g'ri yo'l – ularning har qanday tashkiliy tuzilma, madaniyat, shuningdek, siyosiy

yo'nalish bilan bog'liqligini o'rganishdir. Aql fabrikasining strategiyasi va tuzilishi, ko'pincha, yakuniy siyosiy mahsulotning qanday bo'lishiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ularning strategiyasi va tuzilmasidan kelib chiqib, siyosatni shakllantirish jarayonining qaysi bosqichida o'z faoliyatini yo'naltirishini aniqlash mumkin. Masalan, AQSh va boshqa g'arb mamlakatlarida tahlil markazlari to'rt xil shaklda faoliyat olib boradi: akademik (umumiy va ixtisoslashtirilgan), muayyan shartnoma asosidagi tadqiqot-tahlil markazlari, siyosiy tashviqot (propaganda) bilan shug'ullanuvchi markazlar, gibrid shakldagi aql markazlari [1; B: 161]. Biron-bir siyosiy partiyaga aloqadorlik masalasida bunday turdagi aql fabrikalari AQShda nisbatan kamroq bo'lib, Yevropa mamlakatlarida esa, ushbu model keng tarqalgan.

Shuningdek, aql markazlarining bir nechta asosiy tashkiliy turlari ham mavjud. Ularning ayrimlarini tahlilga tortamiz:

Akademik – diversifikatsiyalangan: bu turdagi aql markazlari, odatda, bir qator siyosiy masalalar, jumladan, iqtisodiyot, tashqi siyosat, xavfsizlik va atrof-muhit muammolari bo'yicha tadqiqot va tahlillar olib borish bilan shug'ullanadi. Ular, odatda, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- o'ziga xos nufuzga, akademik hamjamiyatning qo'llab-quvvatlashi va ta'siriga ega bo'lib, aynan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratadilar;
- akademik muassasalar bilan o'xshashlik xususiyatiga ega, ular "talabasiz universitetlar" deya nom olgan;
- ilmiy xodimlar bilan ta'minlangan;
- belgilangan akademik qoida va tamoyillarga rioya qiladilar;

- uzoq muddatli tadqiqotlarga ustuvorlik beriladi;
- obyektiv va mustaqil shaklda ish olib boradilar;
- kollegial, muvofiqlashtirilgan boshqaruv modeliga rioya qilishadi.

Bunday tahlil markazlari sirasiga: AQShdagi *Brookings Institution*, *American Enterprise Institute for Public Policy Research*, *The Center for Strategic and International Studies* kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Akademik – ixtisoslashgan: bunday muassasalar tor doiradagi bitta muammo yoki yo'nalishga, masalan, iqtisodiyot yoki ijtimoiy ta'minot tizimini isloh qilishga e'tibor qaratadi. Ular birinchi turdagi aql markazlariga juda o'xshaydi, lekin faoliyatida quyidagi o'ziga xosliklarga ega:

- ixtisoslashganlik darajasi bilan ajralib turadi;
- ixtisoslashtirilgan tadqiqot dasturlari homiylari va bunday markazlarning mijozlar bazasi alohida muammo yoki tor tadqiqot dasturiga ega bo'ladi.

Ushbu turdagi markazlar sifatida: Germaniyaning *Hamburg Institute of International Economics* va AQShda *gi National Bureau of Economic Research* kabi aqliy markazlarni qayd etish mumkin.

Shartnomaviy tadqiqot tashkilotlari / Shartnoma-konsalting aql fabrikalari. Ushbu tahlil markazlari quyidagi xususiyatlarga ega:

- o'z tadqiqot va tahlillarining katta qismini davlat idoralari uchun bajaradilar;
- qoida tariqasida, bunday markazlar faoliyati siyosiy tomonga yo'naltirilgan;
- davlat organlari bilan yaqin hamkorlik aloqalariga ega;

- davlat shartnomalariga tayanadi;
- siyosat yuritish masalalari bo'yicha maslahatchi bo'lib xizmat qiladi;
- tadqiqotlarni emas, siyosiy tahlillarni amalga oshiradi;
- tadqiqotchilar cheklangan erkinlikdan foydalanadilar;
- faqat davlat organlari (buyurtmachi) uchun mo'ljallangan va keng tarqalmay-digan tahlillarni amalga oshiradilar. Ya'ni ilmiy xulosalar (ilmiy mahsulot) tashkilot yoki tadqiqotchilarni emas, balki pudratchilarning mulki hisoblanadi;
- asosan, fanlararo tahlillarga asoslanadi

Bunday shartnomaviy tahlil markazlari sirasiga – Amerikaning RAND kabi yirik aql markazini kiritishimiz mumkin.

Targ'ibot (propaganda)ga yo'naltirilgan aql markazlari – ular kimningdir nuqtayi nazarini tarqatuvchi tashkilotlar hisoblanib, ushbu markazlarning tahlillari kuchli partiyaviy (yoki guruhiiy) tarafkashlikka ega bo'ladi. Bunday aql fabrikalariga xos xususiyatlar quyidagilar:

- ularning vazifasi g'oyaviy, mafkuraviy yoki partiyaviy dunyoqarash bilan belgilanadi;
- saylovlarda g'alaba qozonish masalasi va muammolariga asosiy e'tibor qaratiladi;
- o'z g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida tashkil etiladi;
- siyosiy tahlilda akademik va texnokratik yo'nalishni rad etadi;
- o'z maqsadlariga erishish harakati uchun muayyan mukofot olishi va h.k.

Bunday tahlil markazlari qatoriga: *Cato Institute*, *Citizens for a Healthy US Economy* singari tashkilotlar yoki Rossiyaning Ommaviy diplomatiyani qo'llab-quvvatlash fondi kabilarnikiritish mumkin.

Siyosiy korxonalar: bunday tipdagi markazlarda asosiy e'tibor o'z g'oyalari marketingiga qaratiladi. Ular, odatda:

- muayyan korporatsiyaning mahsuldorligi va samaradorligi bilan tashkil etiladi;
- ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar uchun boshqaruv, marketing va sotish tamoyillarini qo'llashadi;
- ular, ko'pchilik aql fabrikalarining yo'nalishini noto'g'ri deb ta'kidlashadi, chunki u haddan tashqari akademik bo'lib, siyosatchilar ehtiyojlariga javob bermaydi;
- tadqiqot va ishlanmalarni muayyan faoliyat bilan band amaldor va siyosatchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi shakllarda tizimlashtirish ilgari suriladi;
- qisqa, jurnalistik uslubdagi tadqiqotlarni olib borish va joriy qonunchilik yoki siyosiy masalaga e'tibor qaratish bilan shug'ullanadilar [6].

Ushbu turdagi muassasalarga – Heritage Foundation va Iqtisodiy siyosat instituti kabilarni kiritish mumkin.

Aql markazlarining tashkiliy tuzilmalari har xil bo'lishiga qaramay, ularning barchasini, mafkuraviy mansubligiga ko'ra, muayyan sinflarga tasniflash mumkin. Jumladan, konservativ, liberal, markazchi va progressiv shakldagi aql fabrikalari mavjud. Tahlil markazlarining siyosiy va falsafiy asoslari nafaqat tadqiqot olib boriladigan obyektga, balki natijaning o'ziga ham ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi aql markazlari o'z mafkuraviy tarafkashligini ochiq ifodalashni yoqlasalar, boshqalari esa, buni keng auditoriyaga sezdirmaslikni afzal ko'rishadi [7].

Ushbu tasnifdan foydalanib, aql markazlari spektrining bir uchida, odatda, erkin bozor siyosatini ham, an'anaviy ijtimoiy

siyosatni ham qo'llab-quvvatlaydigan konservativ tahlil markazlari faoliyatini aniqlash mumkin. Liberal aqliy markazlar iqtisodiy siyosatga aralashmaslikka urg'u beradi, bu bilan davlatning ijtimoiy siyosatdagi rolini pasaytiradi. Markazchi tahlil muassasalari o'z olimlari fikr-mulohazalarining keng doirasi, shuningdek, konservativ va progressiv elementlarni sintez qilish imkonini beruvchi siyosatga partiyasiz yondashishga urg'u berishlari bilan e'tiborga loyiq. Va nihoyat, ilg'or-progressiv aql markazlari, odatda, intervension iqtisodiy siyosat holatini qo'llab-quvvatlaydi, lekin ko'pchilik ijtimoiy muammolarni hal qilishda hukumatning kam aralashishi tarafdori bo'lib chiqishadi.

Tahlil markazlarining o'ziga xos jihati shundaki, ular nafaqat siyosiy konsepsiyalarni ishlab chiqish va o'ziga xos intellektual mahsulot yaratish, balki ushbu mahsulotni oxirgi foydalanuvchiga yetkazishda ham muhim rol o'ynaydilar. Aql fabrikalari o'z o'rnida insayder sifatida harakat qiladi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Aql fabrikalari o'z mahsulotlarini yakuniy iste'molchiga olib boradigan yo'lda ikkita modeldan foydalanadilar. Birinchi model – o'z intellektual tadqiqotlarini davlat boshqaruv institutlariga to'g'ridan-to'g'ri "sotish" orqali amalga oshirish; ikkinchi model – muayyan g'oyalarni lobbi qilish uchun jamoatchilik fikriga ta'sir qilish orqali amalga oshirish. Ko'pincha, real hayotda ikkala model ham parallel ravishda qo'llaniladi.

Aql markazlari siyosiy qarorlarni ishlab chiqish jarayoniga kirishga da'vo qilishda turli rasmiy kanallardan foydalanadi. Bu ular xodimlarining hukumat komissiyalari faoliyatida ekspert sifatida ishtirok etishi va parlamentda

nutq so'zlashi, qaror qabul qiluvchiga bevosita yuboriladigan rasmiy hisobotlar va tahliliy materiallarni tayyorlashni o'z ichiga oladi. Mazkur kanallarga siyosiy yetakchilar bilan norasmiy aloqalar ham kiradi.

Tahlil markazlarining faoliyati unchalik ommabop bo'lmasa-da, ular siyosiy jarayonga jiddiy ta'sir o'tkazishga qodir. Amerikalik siyosatshunos olim R.Xaas bu ta'sirni beshta yo'nalishga ajratib ko'rsatadi: siyosiy qarorlar uchun o'ziga xos variantlarni ishlab chiqish; hukumatda ishlash uchun tahlilchilar va ekspertlarning tayyor kontingentini tayyorlash; g'oyalarni yuqori darajada muhokama qilish uchun taklif kiritish; aholini xalqaro siyosat masalalari bo'yicha yangiliklar bilan ta'minlash; nizolarni hal qilishda vositachilik yordamini ko'rsatish [8].

Ta'kidlash joizki, inqiroz davrida siyosiy doiralarga kiritilgan ekspertlarning roli sezilarli darajada oshadi.

Yangi siyosiy doktrinalarni ishlab chiqish ham aql markazlari ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bunga tashqi siyosat sohasiga yangicha fikrlashni joriy qilish bilan bog'liq turli keyslar yorqin misol bo'la oladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan so'ng darhol AQShning Xalqaro munosabatlar kengashi tashabbusi bilan "Urush va tinchlik muammolarini tadqiq etish" sarlavhasi ostida urushdan keyingi kelajak dunyosi uchun asos yaratishga yo'naltirilgan ilmiy-tahliliy izlanishlar olib borildi. Ushbu keng ko'lamli loyiha natijasi memorandum bo'lib, unda BMTni yaratish rejasi ham mavjud edi. 1947-yilda Kengash muassisligida chop etiladigan "Foreign Affairs" jurnalida diplomat Dj.Kennanning "Sovet xulq-atvorining kelib chiqishi" nomli maqolasi nashr etildi, bu esa,

o'z navbatida, Qo'shma Shtatlar tomonidan keyingi bir necha o'n yilliklar davomida olib borilgan "tiyib turish" siyosatining intellektual asosini yaratib berdi, deyish mumkin.

Ilmiy-tahliliy tafakkurning jahon siyosatiga chuqur ta'sir ko'rsatganligiga yana bir misol: F.Fukuyamaning "Tarixning oxiri" (The End of History and the Last Man) asari bo'lib, unda muallif bir qutbli dunyoga o'tish bilan sivilizatsiyalar o'rtasidagi qarama-qarshilik tugashini bashorat qilgan. Uzoq vaqt davomida bu tasavvur aksioma sifatida qabul qilindi. S.Xantingtonning "Tamaddunlar to'qnashuvi" asari ham xalqaro munosabatlar va turli geosiyosiy jarayonlarda chuqur iz qoldirdi.

Aql markazlari faoliyatini o'rganishdagi yana bir muhim jihat shundaki, aql markazlari (Think Tanks)ni umumiy tipdagi akademik tadqiqot tashkilotlaridan farqlay olish muhimdir. Bu borada quyidagicha farqlarni bayon etish mumkin.

Birinchidan, aql markazlarida aniq belgilangan moliyaviy maqsadlar va majburiy tarkibiy bog'liqlik mavjud emas. Ular o'z faoliyatini foyda olish maqsadida yoki bunday maqsadga erishishga intilmasdan amalga oshirishi mumkin. Tahlil markazi davlat organi yoki hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yoki bunday qo'llov umuman bo'lmasligi ham mumkin. Aql fabrikasi butunlay mustaqil bo'lishi yoki yirik universitet yoki kompaniya bilan bog'lanishi mumkin. Vaqtinchalik muayyan vazifani bajaradigan maxsus guruh yoki jamlanmadan farqli o'laroq, tahlil markazi doimiy faoliyat yurituvchi tashkilot bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, yana bir farq aql markazlarining roli bilan bog'liq. Aqliy markazning asosiy vazifasi fundamental va

amaliy tadqiqotlar olib borish emas (garchi ularning har ikkalasi ham uning faoliyatining bir qismi bo'lsa-da), balki, bir tomondan, hokimiyat va bilim, texnika va fan o'rtasida aloqalar o'rnatish va ikkinchi tomondan, eng katta qiziqish uyg'otadigan sohalarida siyosatni ishlab chiqishdir. Tahlil markazlari yangi bilimlarni yaratish bilan emas, balki ularni tarqatish bilan shug'ullanadi. Ular, ko'pincha, davlat idoralari bo'lgan iste'molchi uchun bilimlarni to'playdigan va sharhlovchi vositachilar sifatida ishlaydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, aql markazlari faoliyatidagi birlamchi mezon – bu ularning mehnat sohasi, ko'lami va salohiyatini aks ettiruvchi insonlardir, degan xulosaga kelish mumkin. Shunday qilib, astronomik observatoriya yoki saraton kasalligini tadqiq qilish markazi – tadqiqot tashkiloti, ammo ular ikkisi ham aql markazi emas. Hukumat uchun siyosatning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qiladigan guruh, yangi ilmiy usullarni qo'llash bo'yicha hukumatga maslahat beradigan firma, texnologiya yoki demokratiyani o'rganadigan ilmiy jamoaga birlashgan olimlar uyushmasi – bularning barchasi aql markazlaridir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, demokratik yangilanish va huquqiy modernizatsiya sharoitida aql markazlariga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Mamlakatimizda aql markazlarini tashkil etish va ular faoliyatini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-sonli Farmoni asosida qo'llab-quvvatlangan [9]. Ushbu Farmon davlat

boshqaruvi qarorlarini qabul qilishda ilmiy-tahliliy tashkilotlar ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Farmonga binoan, aql markazlari fuqarolik jamiyatining tashkiliy-institutsional asoslarini rivojlantirish, tahliliy-ilmiy laboratoriyalar sifatida davlat dasturlarini monitoring qilish va takliflar ishlab chiqish bilan shug'ullanishi belgilab berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli tahliliy tadqiqot institutlari jamoatchilik fikrini shakllantirgani holda davlat tomonidan islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirish hamda qarorlar qabul qilishga ko'maklashmoqda. Ayniqsa, siyosiy qarorlar qabul qilishda xalq bilan muloqotni yo'lga qo'yish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy masalalarda istiqbolni belgilashda ushbu turdagi mustaqil "aql markazlari"ga murojaat qilinadi.

Mazkur yo'nalishda rivojlangan davlatlar tajribasiga e'tibor qaratilsa, ko'pchilik siyosiy partiyalar tizilmasida aynan shunday aql markazlari ham faoliyat yuritadi. Ushbu ilg'or tajribani o'rgangan holda bugungi kunda mamlakatimizda siyosiy partiyalarni davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi dolzarb ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar borasida doimiy izlanishlar olib boradigan, aholini (elektoratni) qiynayotgan muammolar yechimlari yuzasidan aniq va manzilli dasturlar ishlab chiqadigan, davlat boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik nazoratini va ijtimoiy hamkorlik o'rnatadigan "aql fabrika"lariga aylantirish zarurati mavjud.

Bunday aql markazlarini nafaqat ilmiy hamjamiyat, balki demokratiya institutiga aylantirish uchun, eng avvalo, ularning ish samaradorligini oshirish, ilmiy-tahliliy izlanishlarda yangi, XXI asrga xos bo'lgan, innovatsion uslublarni qo'llash hamda ushbu yo'nalishda

sog'lom raqobat muhitini yaratish lozim.

Davlat boshqaruvida "aql markazlari" omilidan foydalanish, umuman, samarali ichki va tashqi siyosat olib borish, avvalo, kadrlar masalasiga ham bog'liqdir. Bugungi kunda, mazkur tizimda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, faol va harakatchan yosh

kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu borada O'zbekistonning ichki va tashqi siyosati falsafasini tom ma'noda idrok etadigan, unga zamonaviy siyosiy menejment va innovatsion g'oyalarni tatbiq etish salohiyatiga ega, yangicha fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini jalb qilish strategik vazifalar sirasiga kiradi.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Диксон П. Фабрики мысли / редактор: Краюшкина Н.Г. – М.: Издательство АСТ, 2004 г.
2. Rich A. Think Tanks, Public Policy, and the Politics of Expertise // [https:// doi.org /10.1017/CBO9780511509889](https://doi.org/10.1017/CBO9780511509889)
3. Lindquist E. Three decades of Canadian think tanks: evolving institutions, conditions and strategies // https://www.researchgate.net/publication/268420803_Think_Tanks_Foundations_and_Policy_Discourse_Ebbs_and_Flows_Investments_and_Responsibilities
4. Abelson D. Do Think Tanks Matter? // [http://www.cato.org /sites/cato.org/files/serials/files/cato-journal/2003/5/cj23n1-19.pdf](http://www.cato.org/sites/cato.org/files/serials/files/cato-journal/2003/5/cj23n1-19.pdf)
5. Dror Y. Required Breakthroughs in Think Tanks. Volume 16, pages 199-225, (1984).
6. Косов Г.В., Панин В.Н., Сучков М.А. Экспертное сообщество как ресурс обеспечения внешней политики современного государства (на примере США) // Гуманитарные и юридические исследования. – 2014. № 3.
7. McGann J. Comparative Think Tanks, Politics, and Public Policy. 2006., ISBN: 9781843760221.
8. Haass R. A World in Disarray: American Foreign Policy and the Crisis of the Old Order. Penguin Press, 2017. ISBN 978-0399562365.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2021-2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-6181-сонли Фармони // www.lex.uz